



**MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR, ILG'OR  
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В  
ОБЛАСТИ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

**международная научно – практическая конференция**

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES AND PROSPECTS IN THE  
FIELD OF HOSPITAL PEDAGOGY**

**international scientific - practical conference**



**3-dekabr 2024-yil**



**MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI  
DOLZARB MASALALAR, ILG'OR  
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ  
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ОБЛАСТИ  
ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES  
AND PROSPECTS IN THE FIELD OF HOSPITAL  
PEDAGOGY**

international scientific - practical conference

Har bir bob alohida hujjat sifatida tayyorlanishi kerak, bu narsa darslikni kompyuterga yuklashdagi tezlikni kamayishi va materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga barham beradi.

Ta'lim muassasalarida elektron darsliklardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni jadallashadi.

O'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bir maqsadga yo'naltirilganlik ko'rsatgichini oshirish;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- o'quv mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv amaliy darajasini tezlashtirish.

Hozirgi kunda yaratilgan va yaratilayotgan elektron o'quv adabiyotlar soni uncha katta emas. Ushbu ishni jadallik bilan amalga oshirish va ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etish hozirgi kunda zaruratga aylangan. Qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun respublikadagi salohiyatli va tajribali o'qituvchi, uslubchi, olim va tizimli dasturchilarni birlashtirib maxsus elektron darslik yaratuvchi guruhlar, imkoniyatdan kelib chiqqan holda hatto markazlar tashkil etilmoqda. Bu bilan mustaqil O'zbekistonimiz kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodni yangi axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qitib, bilimli, mustaqil fikrlaydigan va rivojlangan chet davlatlarining yoshlari bilan raqobatdosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytib o'tish joizki, so'nggi 2 yil ichida respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Shunday ekan, tez orada ta'lim tizimida elektron darsliklardan foydalanish oddiy darsliklar kabi kundalik ehtiyoj bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH.

**Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna**  
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**  
**Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi**  
**Telefon: +998917793882**

**[munisxonernazarova21@gmail.com](mailto:munisxonernazarova21@gmail.com)**

**Chirchiq davlat pedagogika**  
**universiteti Pedagogika fakulteti**  
**2-bosqich talabasi**  
**Bahodirova Mashhura Zafarovna**  
**Tel: +998940946805**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etishning mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Qadriyatli yondashuv tamoyillari dars jarayonida bu yondashuvni qo'llash usullari va kutilayotgan samaralar batafsil yoritilgan. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilarning bilim olish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishlari, ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishlari ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadriyatli yondashuv, umumiy o'rta ta'lim, ta'lim jarayoni, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, tarbiya, interfaol, metod, dars, tashkil etish.

**ANNOTATION:** This article explores the essence and importance of organizing the educational process in general secondary schools based on a value-based approach. It discusses the principles of the value-based approach during lessons, and the expected outcomes in detail. Through this approach, students are expected not only to gain knowledge but also to internalize national and universal values, fostering their spiritual and moral development.

**Keywords:** Value-based approach, general secondary education, educational process, national value, universal value, education, interactive, method, lesson, organization.

Ta'lim tarbiya har qanday jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashtirish davrida yoshlarda nafaqat chuqur bilim, balki milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish hissini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari esa bu jarayonda poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli, o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Qadriyatlar deganda, insonlar va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy axloqiy va madaniy tushunchalar tushuniladi. Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, madaniyati urf-odatlarini va an'analari namoyan bo'lsa, umuminsoniy qadriyatlar barchaga xos bo'lgan axloqiy mezonlar, masalan, adolat, tinchlik, o'zaro hurmat va tabiatni asrash tamoyillaridan iboratdir. Ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish orqali yosh avlodni nafaqat bilimli balki ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

Shu nuqtai nazardan, qadriyatli yondashuv asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish bilan birga ularda milliy g'urur, vatanga muhabbat, ekologik mas'uliyat va insoniylik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi va istiqboli yosh avlodning tarbiyasi va ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq. Yoshlar nafaqat o'zlari yashayotgan jamiyatning kelajagini belgilovchi kuch, balki milliy qadriyatlar va an'analarni saqlash hamda rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunida ham quyidagi asosiy vazifalar keltirilgan "O'quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan

ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash. Ularga vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirish"<sup>9</sup>

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.<sup>10</sup> Ta'lim jarayonida qadriyatli yondashuvning joriy etilishi ham aynan ushbu maqsadga xizmat qiladi. Qadriyatli yondashuvning joriy etilishi aynan ushbu maqsadga xizmat qiladi. Qadriyatli yondashuv asosida o'quvchilarga nafaqat darslik materiallari o'rgatiladi, balki ularga insonparvarlik, ekologik ma'suliyat va boshqa umuminsoniy qadriyatlar singdiriladi.

Bunda milliy qadriyatlar ya'ni xalqimizning ko'p asrlik tarixi, madaniyati, urf-odatlar va an'analariga asoslangan ma'naviy meros alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, global qadriyatlarni ham o'quvchilarga o'rgatish orqali ularni zamonaviy dunyo talablariga moslashuvchan, ochiq va faol fuqarolar sifatida shakllantirish ko'zda tutiladi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasi oldida turgan muhim vazifalardan biri bilim berishning an'anaviy shaklidan chiqib, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Qadriyatli yondashuv esa aynan mana shunday metodologik yondashuv bilan uyg'unlashadi. Masalan, dars jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hayotiy tajribasini dars mavzusi bilan bog'lash madaniy tadbirlar va loyiha ishlari orqali bilim va tarbiyani uyg'unlashtirish kabi usullar samarali hisoblanadi.

Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida qadriyatli yondashuv asosida darslarni tashkil etish nafaqat o'quvchilar bilimni mustahkamlashga, balki ularni jamiyatga foydali, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashadi. Ushbu maqolada qadriyatli yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning tamoyillari amaliy qo'llanishi va erishiladigan natijalar haqida so'z yuritiladi.

Qadriyatli yondashuvning mohiyati va uning ta'limdagi ahamiyati.

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni.5-modda – Toshkent: Adolat, 2020.

<sup>10</sup> “Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish “ Ernazarova M.J. “Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалық журнал

Qadriyatli yondashuv zamonaviy ta'limning muhim metodologik tamoyillaridan biri bo'lib, uning asosida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari balki shaxs sifatida shakllanishlari yotadi. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatini boshqaruvchi asosiy tamoyillar bo'lib, ular shaxsning qarashlari, xulq-atvori va munosabatlariga ta'sir qiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida qadriyatli yondashuvni qo'llash o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki jamiyatga foydali, ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida qadriyatli yondashuvning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat.

1. Milliy o'zlikni anglashni shakllantirish: Milliy qadriyatlarni dars jarayoniga kiritish orqali o'quvchilarda tarixiy merosga hurmat milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

2. Umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatish: O'quvchilarga inson huquqlari, ekologik mas'uliyat tenglik va adolat kabi qadriyatlarni singdirish orqali ularni global fuqarolikka tayyorlash.

3. Tarbiya va ta'limning uyg'unligi: Bilim berish bilan birga o'quvchilarni ahloqiy ijtimoiy va madaniy jihatdan tarbiyalash.

Qadriyatli yondashuvning asosiy tamoyillari.

Qadriyali yondashuvning samarali bo'lishi uchun quyidagi tamoyillarni ta'lim jarayoniga joriy etishi zarur:

1. Integratsiya tamoyili:

Qadriyatlarni barcha fanlar mazmuniga singdirish. Masalan, tarix fanida milliy merosni o'rganish biologiya darslarida ekologik qadriyatlarni targ'ib qilish.

2. Hayotiylik tamoyili: o'quvchilarga berilayotgan bilimlar va qadriyatlarni real hayot bilan bog'lash ularga hayotiy tajribalarini misol keltirish orqali ta'sir ko'rsatish.

3. Moslashuvchanlik tamoyili: Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish.

Xulosa

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qadriyatli yondashuv asosida darslarni tashkil etish yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk

shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham qadriyatli yondashuv asosida darslarni tashkil etish milliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar va ma’naviy ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirishning muhim vositasidir. Bu esa jamiyatimizning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodning yetukligi uchun mustahkam asos yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy-ma’rifiy ishlarga oid ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. Qodirov, R. Pedagogik yondashuvlar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Karimov, A. Qadriyatlar va milliy ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
5. Islomova, S. Ta’limda interfaol metodlar qo‘llanilishi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
6. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
7. Vygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
9. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish “ Ernazarova M.J. “Муғаллим ҳам үзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалық журнал